



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

MINTAQALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI
RIVOJLANTIRISH VA UNI INVESTITSIYA BILAN TA'MINLASHNING
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

IKROMOV. E. I.

Osiyo Xalqaro Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Jahonning rivojlangan mamlakatlari amaliyotida iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning samarali usullaridan biri sifatida tadbirkorlikni izchil rivojlantirish tajribasi o'zining ijobiy samarasini ko'rsatmoqda. Agar rivojlangan mamlakatlarda kichik va o'rta biznesning yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi ulushi 50-55 foizni tashkil etayotgan bo'lsa, O'zbekistonda amalga oshirilgan tizimli islohotlar natijasida YaIMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 56,7 foizni tashkil etmoqda. Tadbirkorlik faoliyati uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o'nta davlat qatoridan joy oldi. Shu bois iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning hozirgi bosqichida mintaqalarda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlikni amalga oshirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish, valyuta siyosatini liberallashtirilishidan unumli foydalanish va shu asosda mamlakatimiz mintaqalarida investitsiya muhitini yanada yaxshilash dolzarb masala hisoblanadi.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik sub'ektlari, investitsiya, mintaqaviy iqtisodiyot, mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, investitsion loyihalar, investitsion jozibadorlik, samaradorlik.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, islohotlarni chuqurlashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlarni yaratish, amalda faoliyat yuritayotgan texnika va texnologiyalarni yangilash hamda ularni qo'llab-quvvatlash investitsion jarayonlarni nechog'li to'g'ri va samarali amalga oshirishga bog'liqdir. Shu boisdan ham, O'zbekiston Respublikasi davlat rahbari va hukumati tomonidan iqtisodiyotni modernizatsiyalashni izchillik bilan amalga oshirishda investitsion siyosatni to'g'ri va aniq maqsadlarni ko'zlagan holda olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun markazlashgan, markazlashmagan jamg'armalar mablag'lari, xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o'zlashtirishga hamda ulardan samarali foydalanish masalalariga urg'u berilmoqda.

Xususan, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarini mutanosib rivojlanishini ta'minlash, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini inobatga olish, shuningdek, joylarda aholi bandligini oshirish maqsadida har yili mamlakatimizda investitsiya dasturi va mintaqaviy investitsion dasturlari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Birgina 2022 yilda iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmi 24 milliard AQSh dollarni tashkil etdi. Keyingi yillarda respublikada investitsion muhitni yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida 12 dan ortiq qonun, 60 dan ortiq farmon va qaror qabul





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qilindi. Mazkur raqamlarning o'zidan ham iqtisodiyotimizning tez sur'atlarda barqaror rivojlanayotganini, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda kapital qo'yilmalar ijobiy (to'g'ridan-to'g'ri) ta'sir ko'rsatayotganini ko'rishimiz mumkin. Zotan, yalpi ichki mahsulotning o'sishida investitsiyalar yuqori ta'sir ko'rsatadigan omil hisoblanadi.

Shuni qayd etish lozimki, O'zbekistonda bir yil davomida yaratilayotgan tovar va xizmatlar hajmi oxirgi o'n yilda 8 foizdan kam bo'lmagan hajmda rivojlanib kelmoqda. Xalqaro miqyosda katta nufuzga ega bo'lgan Jahon iqtisodiy forumi reytingiga ko'ra, O'zbekistonning 2020–2021 yillardagi rivojlanish yakunlari va 2022-2023 yillarda iqtisodiy o'sish prognozlari bo'yicha dunyodagi eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy olgani ham e'tiborlidir.

Hozirgi kunda investitsiya siyosatini amalga oshirishda hukumat tomonidan quyidagi asosiy tamoyillarga ustuvorlik berilmoqda va samarali hal etilmoqda:

- Respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag'larni keng jalb qilishni ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shartsharoitlarni tobora yaxshilash;
- Respublikamizga jahon darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan, iqtisodiyotning zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko'maklashayotgan xorijiy sarmoyadorlarga imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etish;
- mablag'larni Respublika mustaqilligini ta'minlaydigan va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatda raqobat qila oladigan va valyuta tushumini ta'minlaydigan yetakchi tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash;
- aholi bandligini ta'minlaydigan va milliy daromadni oshirishga qaratilgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish;
- energiya tejankor va atrof muhitga kam zarar yetkazadigan yuqori texnologik, zamonaviy uskunalarni o'rnatish;
- mahalliy sharoitlarga mos keladigan ilg'or xorijiy texnologiyalarni tatbiq etish, o'zimizda yaratilayotgan ixtirolarni rag'batlantirish va bilimlar iqtisodiyotiga mablag'lar yo'naltirish.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va innovatsion iqtisodiyot uchun zarur shart-sharoitlar mavjud bo'lsa, sifat jihatdan yangicha bozor institutlari va tadbirkorlik tizimlarini shakllantirish masalasi ham yuzaga keladi. Shu ma'noda, sog'lom tadbirkorlik muhiti, shu jumladan, tadbirkorlik sub'ektlarining salmoqli ahamiyatga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy va investitsion mavqelari, ularning yirik korxonalar bilan faol hamkorlik aloqalari mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynashi kerak. Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish unda nafaqat tarmoqlar va mintaqalar doirasidagi, balki institutsional xarakterdagi chuqur islohotlarni amalga oshirishni ham ko'zda tutadi. Ushbu masalalarni hal etishda kichik tadbirkorlik muhim rol o'ynashi mumkin.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi asosi sifatida tadbirkorlik o'z o'rnini egallamoqda. Agar mustaqillik davrigacha mamlakatda tadbirkorlik amalda mavjud bo'lmagan bo'lsa, hozirgi vaqtda yalpi ichki mahsulotning 56 foizidan ziyodi tadbirkorlik sohasida shakllanmoqda. Bugun xo'jalik yurituvchi sub'ektlar umumiy sonining 90 foizdan ziyodi tadbirkorlik sub'ektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Iqtisodiyotning ushbu sektori ulushi va ahamiyatini kengayishiga mamlakatda tadbirkorlik rivojlanishini keng miqyosda qo'llab-quvvatlash, ishbilarmonlik muhini takomillashtirish, xususiy mulk hukuklarini ishonchli himoyalash va kafolatlash tizimini yaratish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida bu soha mamlakatimiz iqtisodiyotida yetakchi kuchga aylanib bormokda.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatida bu toifadagi sub'ektlarning investitsion faolligini rag'batlantirish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlar majmui, jumladan, ularning yirik korxonalar bilan o'zaro aloqasini faollashtirish, yagona tadbirkorlik muhiti va butun mintaqalar yagona iqtisodiy tizimiga izchil ravishda qo'shilishiga qaratilgan chora-tadbirlar o'z ifodasini topishi lozim. Aslida, bugungi kunda boshqaruvning barcha pog'onalarida sifat jihatdan yangi, investitsiyalarga ustuvor e'tibor qaratiladigan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat dasturlarini ishlab chiqish masalasini qo'yish zarur.

Nima uchun mintaqalar iqtisodiyotidagi investitsion jarayonlarda tadbirkorlik sust faoliyat ko'rsatmoqda? Avvalo, shunga e'tibor qaratish lozimki, tadbirkorlik uchun investitsiyalarga yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'lar yetishmasligi haqidagi avvaldan tilga olinib kelinadigan muammoni bunga sabab qilib, birgina tadbirkorlik sub'ektlarining investitsion jarayonlarda sust ishtirok etish holatida ekanligi bilan to'liq izohlab bo'lmaydi. Bunga ko'p jihatdan tadbirkorlikning yirik korxonalar bilan mustahkam, uzoq muddatli o'zaro aloqalar yo'qligi, ya'ni tadbirkorlarni o'z ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va modernizatsiya qilishga undovchi iqtisodiy aloqalar yaxshi emasligi asosiy sabab bo'lib qolmoqda. Tadbirkorlik sub'ektlari yagona tadbirkorlik muhiti doirasidagi integratsion jarayonlarga faol qo'shilishi va ularga kiritiladigan investitsiyalar hajmini oshirish bir-biriga chambarchas bog'liq vazifalardir. Ammo, bu jihat davlat tomonidan ustuvor vazimfa sifatida belgilangan bo'lsada, butun Respublika va mintaqalar miqyosida tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash borasidagi dasturlarda har doim ham o'z ifodasini topmayapti. Shunday ekan, ushbu siyosatdagi mazkur holatlarni yanada chuqurroq o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib borishga zarurat tug'ilmoqda.

Mazkur yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlarning asosiy maqsadi hozirgi sharoitda tadbirkorlik sub'ektlari investitsion faolligiga zamin yaratuvchi shart-sharoit va omillarni aniqlash, shuningdek, mintaqaviy va mahalliy miqyosda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining eng muhim ahamiyatga ega yo'nalishlaridan biri sifatida kichik va yirik korxonalar o'rtasidagi investitsion hamkorlikning amaliy imkoniyatlarni aniqlashdan iborat.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etish konsepsiyasini amalga oshirishga qaratilgan strategik vazifani bajarish, ya'ni milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish jarayonidagi asosiy omillardan biri yirik mintaqaviy, mintaqaviy-hududiy tizim – viloyatlardagi qulay tadbirkorlik muhiti va uning ildam taraqqiyoti hisoblanadi. Ma'lumki, mintaqaviy tadbirkorlikning izchil rivojigina jadal globallashuv sharoitidagi milliy va xorijiy bozor talablariga moslashib, ulkan raqobatbardoshlikni namoyon etadi. Vaholanki, ayrim mintaqaviy tizim va hududlarning tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, yer-suv resurslari salohiyatidagi afzalliklardan oqilona foydalanilmayapti.

Biroq, hozirgi kunda milliy mintaqaviy tizim va hududiy hamjihatlik mexanizmining tashkiliy-iqtisodiy asosiga, mintaqaviy tadbirkorlik takomillashuvida investitsiyaviy faollikning o'rni va uning mintaqaviy iqtisodiyot o'sish sur'atlariga bevosita ta'siri bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlari alohida tadqiqot sifatida o'rganilmagan. Mazkur tadqiqot esa, aynan ushbu sohadagi nazariy-uslubiy kemitiklarga barham berishni nazarda tutadi.

Ko'p qirrali va keng qamrovli mintaqashunoslik tadqiqotlari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy va tabiiy mintaqaviy jihatlarining o'zaro bog'liqligi nuqtai nazaridan amalga oshiriladi. Muayyan shartsharoitlarga ko'ra, mintaqashunoslarning turli davrdagi yondashuvlari ham, ustuvorlik tamoyillari ham o'zgarib va takomillashib boradi.

Ayni chog'da milliy iqtisodiy xavfsizlikni hamda o'tish davri islohotlari muvaffaqiyatini ta'minlashdagi hal qiluvchi shartlardan biri - bu mintaqashunoslarning ilmiy asoslangan yondashuv va ustuvorlik tamoyillarini tanlash darajasi hisoblanadi. Binobarin, iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi mintaqaviy yondashuv ma'muriy hududlarlarning tabiiy-geografik, ijtimoiy-demografik, iqtisodiy-institutsional salohiyatidagi tafovutlarni aniqlash, tahlil etish, ularga baho berish, bu borada ko'p variantli dastur ishlab chiqish, muqobil qarorlar qabul qilish va amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitni ta'minlaydi. Tadbirkorlik har bir mintaqaning bozor munosabatlariga qulay moslashuv imkoniyatini oshiradi va salohiyatini mustahkamlaydi.

Bizning fikrimizcha, mintaqashunos iqtisodchilar yondashuvlaridagi ustuvor tamoyillarning tadrijiy rivojini ham tahlil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu jarayon jahon xo'jaligi shakllanuvi va globallashuvi, shuningdek, mintaq va jahon xo'jaligi rivojidagi uyg'unlik nuqtai nazaridan tahlil etilganda asosan uch bosqichni kuzatish mumkin. Birinchi bosqich XVIII asrdan to ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davr oralig'ini; ikkinchi bosqich ikkinchi jahon urushidan to XX asrning 80yillar oxirigacha bo'lgan davr oralig'ini qamrab olsa, uchinchi bosqich esa XX asrning 90-yillaridan hozirgacha davom etmoqda.

G'arb olimlarining birinchi bosqichga mansub yondashuvlarida dastlab mamlakat ma'muriy hududlaridagi tabiiy, demografik salohiyat, keyinchalik transport omili ham ustuvor hisoblangan. Bunday yondashuv albatta, tadbirkor va ishbilarmonlarni beqaror va nomukammal raqobat sharoitidagi bozor munosabatlari talablariga qulay moslashuv imkoniyatini mustahkamlagan. Ikkinchi bosqichdagi mintaqashunoslarning tadqiqotlarida





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

nazariy yondashuvlarning amaliyot bilan bevosita bog'liqligi, qo'llaniladigan usul va vositalarining aniqligi kabilar har bir mamlakat tarkibidagi mintaqalarning ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini belgilashga asos bo'lgan. Birinchi bosqichda mintaqashunoslar tadqiqotlarni "xalqaro mehnat taqsimoti", "ixtisoslashuv", "xalqaro savdo" kabi tushunchalar tevaragida amalga oshirgan bo'lsalar, ikkinchi bosqichda esa, mintaqaviy tadqiqotlardagi tushunchalar tarkibi jiddiy boyiganligini qayd etish lozim. Masalan, "xalqaro kapital harakati" (Olin, Iverson, Nurkse), ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimoti (Xeksher, Olin, Samuelson), "xalqaro (mintaqalararo) savdoda pul mexanizmining o'rne" (R.Xarrot, R.Maxlup va Kurixiro), Bojxona ittifoqi (F.Ferru, Ch.P.Kinfleberger) kabi masalalar bo'yicha tadqiqotlar mintaqalar salohiyatidan samarali foydalanishda jiddiy siljishlarni yuzaga keltirdi.

Ko'rinib turibdiki, XXI asr boshlariga kelib, globallashuv jarayoni mintaqaviy tadqiqotlarning markaziy mavzusini tashkil etmoqda. Chunki globallashuv har bir mamlakatning ixtiyoriy ma'muriy tuzilmasi mavqeiga ta'sir ko'rsata oladi. Natijada mintaqalarning global jarayonlar va hodisalarga bog'liqligi ortadi; har bir mintaqaning mavqei mamlakatdagi makroiqtisodiy siyosatga emas, tadbirkorlik faolligining qanday yo'lga qo'yilishiga bog'liq; mintaqaning mamlakat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish doirasi kengayadi. Shuning uchun ham mintaqaviy ilmiy assotsiatsiyaning xalqaro kongressida (Tokio, 1996) ta'kidlanganidek, dunyo integratsiyalashuvi kuchayayotgan sharoitda texnologik va tadbirkorlik istiqboli nuqtai nazaridan bu jarayon kengayib, ayrim hollarda milliy iqtisodiyotga nisbatan mintaqaviy iqtisodiyotning tahlil talabligi ham yuqoriroq mavqeni egallamoqda.

Mintaqashunoslarning globallashuv sharoitidagi sa'yi harakatlari jahon xo'jaligi va mintaqalarning uyg'un rivojlanish yo'llarini ishlab chiqishga va hayotga tatbiq etishga tobora ko'proq qaratilmoqda. Demak, globallashuv sharoitidagi mintaqaviy tadbirkorlik ustuvorliklarini anglab yetish va namoyon etish mahorati mintaqaviy rivojlanish mexanizmining ilmiy asoslanganlik darajasiga bog'liq.

Milliy iqtisodiyot xavfsizligi va ravnaqining asosiy shartlaridan biri bu jarayonni mintaqaviy salohiyatni mustahkamlash nuqtai nazaridan tahlil etish, baholash va puxta qarorlar bilan ta'minlash kabilar ekanligi yuqoridagi tadqiqotimizda ayon bo'ldi va o'z tasdig'ini topdi. Ta'kidlash joizki, mintaqaviy tadbirkorlikni himoya qilish, qo'llab-quvvatlash, raqobatbardoshligini oshirish va barqaror istiqbolli rivojlantirishda mintaqaviy (hududiy) siyosatning darajasi ko'p jihatdan ahamiyatli hisoblanadi. Chunki, bozor munosabatlari sharoitida ko'pchilik tadbirkorlik sub'ektlarining xorij tovarlari intervensiyasiga bardoshlilikini ta'minlash qiyinchilik bilan kechmoqda.

Amalga oshirgan tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, tarkibiy islohotlar mintaq salohiyati darajasiga nisbatan sust tashkil etilishi, aholi ijtimoiy tabaqalashuvi va himoyalashdagi tafovutlar ortib borishi; shahar va qishloq o'rtasidagi tafovut, ma'muriy-markazlashgan boshqaruv ustuvorliklari saqlanib qolayotganligi; mintaqalar rivojida xom ashyoviy yo'nalishdagi ishlab chiqarish salmog'i kamaymayotganligi;





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

sugʻoriladigan yerlarda yaroqsizlanayotgan irrigatsiya-melioratsiya inshootlarini tiklash va yangilash ishlarining sustligi; don mahsulotlaridan boshqa isteʼmol tovarlari (kiyim-kechak, poyafzal, goʻshtsut mahsulotlari) taʼminotida ichki imkoniyatlar cheklanganligiga barham berilmayotganligi, mintaqaviy tizimlar moliyaviy mabalarining zaifligi kabilar mintaqaviy siyosat unsurlari takomillashtirilishini talab etmoqda.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. EI, I. JAHON SAVDO KOʻRSATKICHLARI ISTIQBOLI VA BUNDA OʻZBEKISTON EKSPORTCHI KORXONALARI UCHUN IMKONIYATLAR.
2. EI, I. (2024). OʻZBEKISTONDA MAKROIQTISODIY KOʻRSATKICHLAR OʻZGARISHLARINING 2022 VA 2023 YILLAR VA TARMOQLAR MIQYOSIDA TAHLILI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(3), 44-52.
3. EI, I. (2024). YALPI ICHKI MAHSULOT TUSHUNCHASI VA UNI HISOBLASHNING ASOSIY SHARTLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 266-274.
4. Ibodulloyevich, I. E. (2024). OʻZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 258-266.
5. EI, I. (2024). MAKROIQTISODIY KOʻRSATKICHLARNING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 275-281.
6. EI, I. (2024). BUXORO VILOYATIDA CHORVACHILIK TARMOGʻI YASHILLASHISH HOLATI TAHLILI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 165-171.
7. EI, I. (2024). MILLIY KOMPANIYALAR RAQOBATBARDOSHLIGI OMILLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 168-174.
8. EI, I. (2024). EKSPORT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 175-182.
9. EI, I. (2024). QISHLOQ XOʻJALIGI TARMOQLARINI YASHIL IQTISODIYOT ORQALI RIVOJLANTIRISH YOʻLLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 172-180.
10. EI, I. (2024). KORXONALARDA RAQOBATBARDOSH EKSPORTNI YOʻLGA QOʻYISH VA MARKETING STRATEGIYALARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 315-324.
11. EI, I. (2024). BUXORO VILOYATIDA QISHLOQ XOʻJALIGI IQTISODIYOTNING YETAKCHI TARMOGʻI SIFATIDA. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 156-164.
12. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT VA UNING USULLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

13. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Xizmat Ko 'Rsatish Korxonalari Faoliyatlarining Samaradorligini Oshirishning Tashkiliy Mexanizmini Takomillashtirish. *Gospodarka i Innovacje.*, 46, 608-615.
14. Ikromov, E. (2024). A METHODOICAL APPROACH TO EVALUATING THE EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(5), 180-188.
15. Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF ETHICS AND CULTURE IN THE INTRODUCTION OF MODERN METHODS OF MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 3(5), 171-179.
16. Ibodulloyevich, I. E. (2024). MENEJMENTNING ZAMONAVIY USLUBLARINI JORIY ETISHDA ETIKA VA MADANIYATNING AHAMIYATI.
17. Ikromov, E. (2024). CLASSIFICATION OF LEADERSHIP STYLES IN THE MODERN MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 615-621.
18. Ibodullayevich, I. E. (2024). Inqirozga Qarshi Choralar Dasturi Doirasida Kichik Biznes Va Xususi Tadbirkorlik Subyektlarini Marketing Tizimi Asosida Rivojlantirish Muammolari. *Miasto Przyszłości*, 54, 1495-1503.
19. Ibodulloyevich, I. E. (2023). DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI TAQSIMLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innovacje.*, 41, 321-325.
20. Ibodulloyevich, I. E. (2023). MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI PROGNOZLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR.
21. Ikromov, E. (2023). REGULATION OF BUSINESS ACTIVITY IS SIMPLIFIED. *Modern Science and Research*, 2(12), 1107-1111.
22. Ibodulloyevich, I. E. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innovacje.*, 51, 258-266.
23. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Tadbirkorlik Faoliyatini Davlat Tomonidan Qo 'Llab-Quvvatlanishi Va Sohaga Mintaqalar Miqyosida Investitsiya Jalb Qilish Samaradorligi. *Miasto Przyszłości*, 53, 515-523.
24. Ibodulloyevich, I. E. (2023). MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innovacje.*, 42, 504-507.
25. Ibodulloyevich, I. E. (2024). DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARIDA RAHBAR XODIMLAR MEHNATINI TASHKIL ETISH VA SALOHİYATINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.
26. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TAMOYILLARI VA USLUBLARIDAN FOYDALANISHDA RAHBAR MEHNATINING AHAMIYATI.
27. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TIZIMIDA RAHBARLIK USLUBLARINING TASNIFLANISHI.
28. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ISHLAB CHIQRISHDA RAHBAR MEHNATINING ASOSIY O 'RNI VA KORXONALAR IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI. *Gospodarka i Innovacje.*, (45), 311-315.
29. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Respublikada Xizmatlar Sifati Va Raqobatbardoshligini Oshirish Orqali Xizmatlar Eksportini Rivojlantirish Istiqbollari. *Gospodarka i Innovacje.*, 46, 247-251.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

30. Ikromov, E. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF INCREASING THE QUALITY AND COMPETITIVENESS OF SERVICES. *Modern Science and Research*, 3(2), 803-810.
31. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF MODERN MANAGEMENT AND ITS METHODS. *Modern Science and Research*, 3(2), 811-819.
32. Ikromov, E. (2024). USE OF FOREIGN EXPERIENCES IN THE ORGANIZATION OF MANAGERIAL WORK IN PRODUCTION ENTERPRISES AND ITS IMPROVEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 820-828.
33. Ikromov, E. (2024). FOREIGN EXPERIENCES OF SERVICE SECTOR DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 794-802.
34. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.
35. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA USLUBIY YONDASHUV.
36. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Ijtimoiy Soliq Stavkasini Kamaytirish Orqali Davlat Budjeti Daromatlarini Oshirish Imkoniyatlari. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 348-353.
37. Ikromov, E. (2023). PROBLEMS IN IMPROVING THE FORECASTING OF LOCAL BUDGET REVENUES. *Modern Science and Research*, 2(10), 794-797.
38. Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MANAGERIAL WORK IN THE USE OF MODERN MANAGEMENT PRINCIPLES AND METHODS. *Modern Science and Research*, 3(1), 18-23.
39. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI.
40. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMATLAR SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO 'NALISHLARI.
41. Bahodirovich, X. B. (2025). KORXONALARDA ICHKI NAZORAT TIZIMINI TASHKIL QILISH. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 72-78.
42. Bahodirovich, X. B. (2025). O'ZBEKISTONDA SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 47-53.
43. Bahodirovich, X. B. (2025). RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH AMALIYOTI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 29-34.
44. Bahodirovich, X. B. (2025). SUG'URTA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 37-43.
45. Sodiqova, N. (2023). A POLITICAL ECONOMY ANALYSIS OF ECONOMIC SECURITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 559-568.
46. Tohir o'g'li, M. T., & To'rayevna, S. N. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION SIYOSAT. *ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(14), 45-53.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

47. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2025). IQTISODIYOTNI RAQAMLI KO 'RSATISHDA SANOATNING O 'RNI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 42-50.
48. To'rayevna, S. N. (2024). TEXNOLOGIYA DISKURSI VA YANGI MEDIA SIYOSIY IQTISODIYOTI.
49. To'rayevna, S. N. (2024). IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INNOVATSION SIYOSAT VA UNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.
50. To'rayevna, S. N. (2024). KORXONALARDA INNOVATSION LOYIHALARNI BAHOLASH TARTIBI VA TANLASH USULLARI.
51. Sodikova, N. (2024). THE MAIN DIRECTIONS OF PROVIDING THE BUSINESS SECTOR WITH QUALIFIED PERSONNEL. *Modern Science and Research*, 3(1), 133-139.
52. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). PANDEMIYA SHAROITIDA O 'ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTIDAGI TARKIBIY O 'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO 'NALISHLARI VA ISTIQBOLDAGI IQTISODIY O 'SISH PROGNOZLARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 111-123.
53. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT TARMOQLARIDAGI TARKIBIY O 'ZGARISHLAR VA ULARNI BAHOLASH. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 101-110.
54. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). O 'ZBEKISTON EKSPORTCHI KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH YO 'NALISHLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 245-254.
55. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). O 'ZBEKISTONDA EKSPORT-IMPORT KO 'RSATKICHLARINING TAHLILI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 151-159.
56. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). JAHON SAVDO KO 'RSATKICHLARI ISTIQBOLI VA BUNDA O 'ZBEKISTON EKSPORTCHI KORXONALARI UCHUN IMKONIYATLAR. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 236-244.
57. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). АНАЛИЗ БЕЗРАБОТИЦЫ В РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАНАХ АФРИКИ И УЗБЕКИСТАНЕ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 122-128.
58. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВВП СТРАН ЕВРАЗИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОЮЗА (ЕАЭС) И УЗБЕКИСТАНА. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 149-156.
59. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). СПРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УРОВНЯ ИНФЛЯЦИИ В СТРАНАХ ЕС И УЗБЕКИСТАНЕ. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 206-212.
60. Abidovna, A. S., & Sadilloevna, D. M. (2024). THE IMPACT OF MANAGEMENT PRACTICES ON INNOVATION IN





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ENTREPRENEURSHIP. ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, 1(3), 232-237.

61. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). TEXNOLOGIK JARAYONNING TANNARXINI HISOBLASH. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 17-23.

62. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASH, XARAJATLARNI TAHLIL QILISH YONDASHUVLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 47-53.

63. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2025). IQTISODIYOTNI RAQAMLI KO'RSATISHDA SANOATNING O'RN. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 42-50.

64. Azimov, B. F., Shadiyev, A. X., & Qudratova, G. M. (2025). YENGIL SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION STRATEGIYALAR. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 15-22.

65. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). TANNARXNI HISOBGA OLISH VA UNI OPTIMALLASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 40-46.

66. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). KORXONALAR MAHSULOTLARI TANNARXINI ANIQLASHDA QO'LLANILADIGAN USULLAR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 54-61.

67. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). XARAJAT TUSHUNCHASI VA MAHSULOT TANNARXINI SHAKLLANTIRISH: NAZARIYA VA AMALIYOT. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 79-85.

68. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). STANDARTLARGA MUVOFIQ XARAJATLARNI HISOBLASH USULI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 62-68.

69. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). BUYURTMA BO'YICHA XARAJATLARNI HISOBLASH USULI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 24-30.

70. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). ENTERPRISE MARKETING STRATEGY. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 259-265.

71. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARI INNOVATSION STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH JARAYONI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 193-198.

72. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARI INNOVATSION STRATEGIYALARINING IERARXIK TUZILISHI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 187-192.

73. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). TIKUVCHILIK SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION STRATEGIYALARINI QOLLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 325-330.

74. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION STRATEGIYANI SHAKLLANTIRISH VA AMALGA





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

OSHIRISHNING DOLZARBLIGI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 183-187.

75. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOTNING MOLIVAVIY REJASI VA UNING MUVAFFAQIYATGA TA'SIRI. *Science, education, innovation: modern tasks and prospects*, 2(1), 8-14.

76. Raxmonqulova, N. O. (2025). HODIMLARNI RAG 'BATLANTIRISH VA MOTIVATSIYA ORQALI ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 2(1), 29-35.

77. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOT MAQSADLARINI BELGILASH VA ULARGA ERISHISH BO 'YICHA STRATEGIK REJALASHTIRISH JARAYONLARI. *Science, education, innovation: modern tasks and prospects*, 2(1), 22-28.

78. Hakimovich, T. M. (2025). PRIORITIES FOR DEEPENING STRUCTURAL CHANGE IN THE ECONOMY. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 12(01), 84-90.

79. Hakimovich, T. M. (2025). HUDUDLAR IQTISODIYOTINI JADAL RIVOJLANTIRISH BO'YICHA STRATEGIYALARNING QO'LLANILISHI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 129-136.

80. Bazarova, M. (2025). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT MOLIVASI TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *Modern Science and Research*, 4(1), 29-36.

81. Shadiyev, A. X. (2025). A MODERN APPROACH TO THE METHODOLOGY OF TEACHING ECONOMIC DISCIPLINES. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 12(01), 134-139.

82. Khudoynazarovich, S. A. (2022). Features of evaluating the effectiveness of activities at the Bukhara State University. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 153-159.

83. Xudoynazarovich, S. A. (2024). KORXONA VA TASHKILOTLARDA PERSONALNI BOSHQARISH TIZIMI VA TAMOIYILLARI. *Gospodarka i Innowacje*, 48, 685-690.

84. Shadiyev, A. (2024). TA'LIM MENEJMENTI. TA'LIMNI BOSHQARISH USULLARI VA QARORLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).

85. Olimovich, D. I., & Khudoynazarovich, S. A. (2020). The cost-effectiveness of improving the quality of hotel services. *Academy*, (4 (55)), 40-42.

86. Khudoynazarovich, S. A. (2023). CREATING VALUE IN A TOURIST DESTINATION.

87. Akbarovna, N. N. (2024). GLOBALLASHUV SHAROITIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR. *Gospodarka i Innowacje*, 54, 107-112.

88. Akbarovna, N. N. (2024). STRATEGIC MANAGEMENT METHODS IN AN INNOVATIVE ECONOMY. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 407-412.

89. Akbarovna, N. N. (2024). MILLIY IQTISODIYOTNI TAHLIL QILISHDA QO 'LLANILADIGAN ASOSIY KO 'RSATKICHLAR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 278-283.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

90. Azimov, B. F. (2024). MOLYAVIY SEKTORDA STATISTIK KUZATISH VA UNING USULLARI. *XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI*, 1(1), 28-31.
91. Жумаева, З. К. (2019). Современные Тенденции И Направления Развития Инвестиционной Деятельности В Регионах Республики Узбекистан. *Современные Проблемы Социально-Экономических Систем В Условиях Глобализации*, 148-152.
92. Jumayeva, Z. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
93. Bustonovna, J. Z. (2024). JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQA TORTISH MEKANIZIMINI TAKOMILASHTIRISH.
94. Bustonovna, J. Z. (2024). IQTISODIY MUAMMOLARNI HAL QILISHDA BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING MUHIM SHARTLARI. *Miasto Przyszłości*, 55, 1436-1440.
95. AT, I. (2024). MINTAQALARDA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 319-326.
96. AT, I. (2024). IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA INVESTITSIYA QILISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI TAHLILI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 149-155.
97. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG'BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.
98. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O'Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.
99. Джумаева, М. С. (2025). АВТОНОМНЫЕ И ИНТЕГРИРОВАННЫЕ МЕТОДЫ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 135-141.
100. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). BARQAROR RIVOJLANISHGA O'TISH SHAROITIDA ISHLAB CHIQARISHNI BOSHQARISH VA TASHKIL ETISH. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 307-312.
101. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 93-99.
102. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). IQDISODIY NOCHOR KORXONALAR TAHLILI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 284-292.
103. Avazovna, R. L., & Hakimovich, T. M. (2024). MINTAQADA MEHNAT BOZORI. MEHNAT BOZORINI TARTIBGA SOLISHNING XUDUDIY ASOSLARI, AHOLI BANDLIGI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YOLLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 307-309.

